



Durdona RASULOVA,

PhD, dotsent, Samarqand davlat pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

E-mail: durdonarasulova0999@gmail.com

PhD Sh.G'afforov taqrizi asosida

FRANKOFON HUDUDLARDA MARKAZIY OSIYO KOLLEKSIYALARINING SHAKLLANISHI HAMDA ILK REPREZENTATSIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida frankofon hududlarda Markaziy Osiyo bilan bog'liq kolleksiyalarning shakllanish jarayoni hamda ularning dastlabki reprezentatsiya shakllari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Ch.-E. Ujfalvi, G.Bonvalot, G. Capus, H. Moser, P. Nadar, J.Shaffanjon, J.Castagné va boshqa sayyohlar, sharqshunoslar hamda kolleksionerlarning faoliyati natijasida Fransiya ilmiy va madaniy muassasalarida jamlangan qo'lyozmalar, arxeologik topilmalar, etnografik buyumlar, fotografik materiallar va san'at asarlarining o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, frankofon makon, kolleksiyalar, muzey manbashunosligi, Ch.-E. Ujfalvi, Gabriel Bonvalot, Guillaume Capus, Henri Moser, Bibliothèque nationale de France, Musée Guimet, etnografik kolleksiyalar.

THE FORMATION OF CENTRAL ASIAN COLLECTIONS AND THEIR EARLY REPRESENTATION IN FRANCOPHONE REGIONS

Annotation

This article analyzes the process of the formation of Central Asian-related collections in Francophone regions during the late 19th and early 20th centuries, as well as their initial forms of representation. The study highlights the role of manuscripts, archaeological findings, ethnographic items, photographic materials, and works of art housed in French scientific and cultural institutions, which were acquired through the activities of explorers, orientalist, and collectors such as Ch.-E. Ujfalvy, G. Bonvalot, G. Capus, H. Moser, P. Nadar, J. Chaffanjon, J. Castagné, and others.

Keywords: Central Asia, Francophone space, Collections, Museum source studies, Ch.-E. Ujfalvy, Gabriel Bonvalot, Guillaume Capus, Henri Moser, National Library of France, Guimet Museum, Ethnographic collections.

ФОРМИРОВАНИЕ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИХ КОЛЛЕКЦИЙ И ИХ РАННЯЯ РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ВО ФРАНКОФОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ

Аннотация

В данной статье анализируется процесс формирования коллекций, связанных с Центральной Азией, во франкоязычных регионах во второй половине XIX – начале XX веков, а также формы их первичной репрезентации. В исследовании освещается роль рукописей, археологических находок, этнографических предметов, фотографических материалов и произведений искусства, собранных в научных и культурных учреждениях Франции в результате деятельности таких путешественников, востоковедов и коллекционеров, как Ш.-Э. Уйфальви, Г. Бонвало, Г. Капюс, А. Мозер, П. Надар, Ж. Шарфаньон, Ж. Кастанье и другие.

Ключевые слова: Центральная Азия, Франкофонное пространство, Коллекции, Музейное источниковедение, Ш.-Э. Уйфальви, Габриэль Бонвало, Гийом Капю, Анри Мозер, Национальная библиотека Франции, Музей Гиме, Этнографические коллекции.

Kirish. Frankofon hududlarda Markaziy Osiyo bilan bog'liq ilk kolleksiyalar asosan qo'lyozmalar, diplomatik hujjatlar, sharq manbalari va paleografik materiallardan tashkil topgan bo'lib, ularning shakllanish tarixi o'rta asrlar va yangi davr boshlariga borib taqaladi. Franiyada Markaziy Osiyo haqidagi dastlabki tasavvurlar aynan yozma meros, qo'lyozma kolleksiyalari va sharqshunoslik tadqiqotlari orqali shakllangan. Shu sababli O'zbekiston madaniy merosining frankofon makonidagi ilk reprezentatsiyasi avvalo matniy va hujjatli meros bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon Amir Temur va Karl VI o'rta asridagi diplomatik yozishmalar, sharq qo'lyozmalarining qirolik va kutubxona fondlariga kirib borishi hamda ularning ilmiy tavsiflanishi orqali amalga oshgan [10]. XIX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyo kolleksiyalarining to'planishi hamda reprezentatsiyasida yangi bosqich yuzaga keldi. Bu davrda Ch.-E. Ujfalvi, Gabriel Bonvalot, Guillaume Capus, Henri Moser, Paul Nadar, Joseph Castagné va boshqa tadqiqotchilar faoliyati natijasida Markaziy

Osiyoga oid arxeologik, etnografik va fotografik kolleksiyalar shakllana boshladi [12].

Metodologiya. Mazkur tadqiqot tarixshunoslik, manbashunoslik va muzeyshunoslikning fanlararo yondashuvlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-genetik usul yordamida frankofon hududlarda Markaziy Osiyo kolleksiyalarining shakllanish bosqichlari va evolyutsiyasi tahlil qilindi. Qiyosiy-tarixiy metod asosida qo'lyozma kolleksiyalari, arxeologik yig'ilmalar, etnografik to'plamlar hamda muzey fondlarining shakllanish xususiyatlari o'zaro taqqoslandi.

Natijalar. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida shakllangan Markaziy Osiyo kolleksiyalari Yevropa ilm-fanida mintaqani o'rganishning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur kolleksiyalar fransuz sayyoh va tadqiqotchilarining Markaziy Osiyoga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalari natijasida yig'ilgan. Fransiya muzeylariga va kolleksiyalariga olib chiqilgan O'zbekiston moddiy madaniyati namunalari

muzey eksponati sifatidagina emas, balki “Markaziy Osiyo haqidagi bilimlarni shakllantiruvchi mustaqil tarixiy manba” sifatida faoliyat yuritgan.

O'zbekiston madaniy merosining Fransiya'dagi ilk reprezentatsiyasi madaniy diplomatiya dastlabki shakli, ya'ni sayohatchilar, kolleksionerlar, fotograflar, arxeologik missiyalar va muzey to'plamlari orqali shakllangan norasmiy muzey infratuzilmasi doirasida yuzaga kelgan. Fransiya'da O'zbekiston madaniy merosining reprezentatsiyasi bir vaqtning o'zida arxiv, qo'lyozma, muzey, kolleksiya va ko'rgazma mexanizmlari orqali amalga oshgan ko'p qatlamli tarixiy jarayon hisoblanadi. Bu konsepsiya faqat ko'rgazmalar tarixi emas, balki Fransiya'da O'zbekiston haqidagi bilim va meros obrazining shakllanish tarixiga aylanadi.

Sharl-Ejen de Ujfalvi (Charles-Eugène de Ujfalvy, 1842–1904) kolleksiyalari. XIX asrning ikkinchi yarmida Fransiyaning Markaziy Osiyodagi ilmiy-ekspeditsion faolligida Sharl-Ejen de Ujfalvi alohida o'rin egallaydi. U Markaziy Osiyoni oddiy geografik hudud sifatida emas, balki antropologik, etnografik va moddiy madaniy obyektlar manbai sifatida o'rgangan fransuz tadqiqotchilarining eng faol vakillaridan biri bo'lgan. Fransiyaning rasmiy ilmiy kolleksiya bazasi AGORHA ma'lumotlariga ko'ra, Ujfalvi tomonidan olib kelingan materiallar bugungi kunda bir nechta yirik fransuz muzeylari va ilmiy institutlari fondlarida saqlanmoqda [14]. E.Ujfalvi kolleksiyalarining ilmiy jihatdan eng qimmatli qismi antropologik kolleksiyalardir. AGORHA (Institut national d'histoire de l'art) ma'lumotlariga ko'ra, Musée de l'Homme fondlarida aynan Ujfalvi ekspeditsiyalaridan kelib tushgan 76 ta bosh suyagi (crânes) saqlanadi. Fransuzcha original qaydda: “À l'heure actuelle, le musée de l'Homme a dans ses réserves 76 crânes issus des missions de Charles-Eugène de Ujfalvy” shaklida ifodalanadi [14]. Bu ma'lumot Markaziy Osiyodan olib ketilgan namunalar XIX-asr fransuz antropologik ilmiy fanining bevosita kolleksion obyektiga aylantirilganini ko'rsatadi. Demak, Ch.-E. Ujfalvi va Mari de Ujfalvi-Bourdon tomonidan yig'ilgan antropologik, etnografik va fotografik materiallar Markaziy Osiyo xalqlarining turmush tarzi, urf-odatlar va antropologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tasniflash imkonini yaratdi. Natijada Markaziy Osiyo Yevropa sharqshunosligida ilmiy tadqiqot obyektiga aylandi.

Giyom Kapyu (Guillaume Capus, 1857–1931) kolleksiyalari. Guillaume Capus tomonidan Turkistondan Fransiya'ga olib ketilgan tabiiy-ilmiy kolleksiyalar bugungi kunda Fransiyaning Muséum national d'Histoire naturelle (Fransiya Milliy tabiat tarixi muzeyi) fondlarida saqlanmoqda. Xususan, Guillaume Capus tomonidan 1881-yilda Turkiston hududida yig'ilgan ayrim botanika namunalari mazkur muzeyning tip kolleksiyalari tarkibida saqlanmoqda. Xususan, Jizzax hududidan yig'ilgan Carum capusii Franch. turining izotip namunasi MNHN Herbarium (P) fondida P00834738 inventar raqami ostida qayd etilgan. Mazkur namuna nomenklaturaviy izotip maqomiga ega bo'lib, yangi tur tavsiflangan dastlabki materiallar majmuasining tarkibiy qismi hisoblanadi [7]. Shuningdek, 1881-yil 29-iyunda Samarqand sharqidagi Dashti Gumbaz va Jagnau manbalari hududidan yig'ilgan Ranunculus turkestanicus namunasi MNHN tip kolleksiyasida “Type specimen” maqomi bilan saqlanmoqda. Bundan tashqari, 1881-yil 13-iyunda Ourmitan hududida yig'ilgan Cousinia capusi Franch. namunasi ham MNHN fondlarida nomenklaturaviy izotip sifatida qayd etilgan [11].

Gabriel Bonvalo (Gabriel Bonvalot, 1853–1933) kolleksiyalari. XIX-asr oxirida Markaziy Osiyoga uyushtirilgan fransuz ilmiy ekspeditsiyalari doirasida Gabriel Bonvalo faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. U Guillaume Capus bilan birgalikda Turkiston hududlarida ilmiy safarlar olib borgan bo'lib, ushbu ekspeditsiyalar natijasida yig'ilgan

materiallarning bir qismi Fransiyaning muzey tizimiga inkorporatsiya qilingan. Gabriel Bonvalot tomonidan Markaziy Osiyoda yig'ilgan kolleksiyalar keyinchalik Fransiya muzey fondlariga kiritilib, bir necha bosqichli institutsional transformatsiya jarayonini boshdan kechirgan. AGORHA (Institut national d'histoire de l'art) ma'lumotlar bazasida qayd etilishicha, “Collection de Gabriel Bonvalot” dastlab 1891-yilda Parijdagi Musée d'Ethnographie du Trocadéro fondlariga qabul qilingan bo'lsa, 1915-yil 4-avgust holatiga ko'ra uning bir qismi Musée national des arts asiatiques – Guimet kolleksiyalari tarkibida qayd etilgan [2]. Ushbu holat Bonvalot tomonidan yig'ilgan etnografik va madaniy materiallarning bir muzeydan ikkinchisiga o'tishi orqali yangi ilmiy va ekspozitsion muhitga moslashtirilganligini ko'rsatadi. Mazkur jarayon muzey manbashunosligi nuqtai nazaridan kolleksiyalarning “institutsional migratsiyasi” sifatida talqin qilinishi mumkin. Ya'ni kolleksiya faqat moddiy obyektlar yig'indisi bo'lib qolmay, balki turli muzey konsepsiyalari, ilmiy tavsiflash tizimlari va reprezentatsiya modellari doirasida qayta talqin etilgan tarixiy manbaga aylangan. Natijada Bonvalot kolleksiyasi XIX asr oxiridagi etnografik yig'imdand XX-asr boshlaridagi Osiyo san'ati va madaniyatiga ixtisoslashgan muzey fondi tarkibiga integratsiyalashgan.

Anri Mozer (Henri Moser, 1844–1923) kolleksiyalari. XIX asr oxirida Markaziy Osiyoga amalga oshirilgan Yevropa ekspeditsion safarlari tarixida Anri Mozer (Henri Moser, 1844–1923) alohida figura hisoblanadi. U klassik fransuz ekspeditsion tadqiqotchisi bo'lmasa-da, uning Markaziy Osiyo bo'yicha to'plagan materiallari Fransiya ilmiy va ko'rgazma makonida faol muomalaga kirgani sababli ushbu tadqiqot kontekstida muhim ahamiyat kasb etadi. Mozer dastlab Rossiya'da hashamatli soatlar savdosi bilan shug'ullangan, biroq tez orada Markaziy Osiyo ekspeditsiyalariga jalb etilgan. Uning asosiy qiziqishi etnografik obyektlar, qurollar, bezak buyumlari va fotografik hujjatlashtirish bo'lganini ko'rsatadi. Anri Mozer faoliyati Markaziy Osiyo moddiy madaniyatining Yevropadagi dastlabki institutsional reprezentatsiyasi tarixida alohida o'rin tutadi. BnF Essentiels hamda Société de Géographie fondlari ma'lumotlariga ko'ra, u Markaziy Osiyoga qilgan safarlari davomida mahalliy hukmdorlar va elita vakillari bilan yaqin aloqalar o'rnatgan. Xiva xoni va boshqa mintaqaviy hukmdorlar tomonidan unga qimmatbaho sovg'alarni taqdim etilgan bo'lib, ular orasida zargarlik buyumlari, nafis bezatilgan qurollar hamda marosimiy ot anjomlari mavjud bo'lgan [3]. Mozerning Markaziy Osiyodan qurol-yarog'lar, taqinchoqlar, milliy kiyimlar va ot jihozlarini olib qaytgani qayd etiladi [3]. Bu holat uning faoliyatini oddiy sayohatchi emas, balki Markaziy Osiyo moddiy madaniyatini Yevropa kolleksion muomalasiga olib kirgan yirik kolleksioner sifatida baholash imkonini beradi.

Pol Nadar (Paul Nadar, 1856–1939) vizual kolleksiyalari. XIX-asr oxirida Markaziy Osiyoga amalga oshirilgan fransuz ilmiy-vizual safarlari orasida Pol Nadar ekspeditsiyasi alohida o'rin tutadi. U Turkistonga oddiy sayyoh sifatida emas, balki yangi fotografik texnologiyalarni sinovdan o'tkazuvchi professional fotograf va vizual hujjatlashtiruvchi sifatida kelgan. Bibliothèque nationale de France (Fransiya Milliy Kutubxonasi) rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 1890-yilda u Toshkent ko'rgazmasida ishtirok etib, Samarqand, Turkiston va Kavkaz bo'ylab uch oy davomida safar qilgan hamda qaytgach 1800 ta tasvir olib kelganini e'lon qilgan [1]. Bu vizual korpus Markaziy Osiyoning XIX asr oxiridagi shahar muhiti, me'moriy obidalar, temiryo'l infratuzilmasi, kundalik hayot, etnografik tiplar va siyosiy elita vakillarini aks ettiruvchi noyob birlamchi manba hisoblanadi. BnF katalogida aynan “[Recueil. Voyage de Paul Nadar au Turkestan russe]” nomli kolleksiya qayd etilgan bo'lib, unda quyidagi ma'lumot

mavjud: “283 fotogr. pos.; 5 enveloppes”, mavzu maydonida esa “Samarkand, Tachkent, Boukhara, Asie centrale” kabi geografik birliklar ko'rsatilgan. Ushbu kolleksiya BnF, département des Estampes et de la photographie fondida EO-112 (27)-BOITE FOL B saqlov kodi ostida saqlanadi [15]. Turkiston safari bilan bog'liq konkret fotografik birliklar ham inventar darajasida aniqlanadi. Masalan, BnF rasmiy ekspozitsiya materiallarida “Vues instantanées du voyage au Turkestan” nomli kolleksiya ko'rsatilgan bo'lib, uning saqlov kodi: EO-112 (24)-BOITE FOL B. Bu inventar seriyasi Pol Nadar tomonidan Turkistonda Kodak va Express Détective apparatlar yordamida yaratilgan “instant photography” korpusiga tegishlidir [13]. Xullas, Paul Nadar tomonidan yaratilgan fotografik kolleksiyalar Markaziy Osiyoning ilk vizual arxivini shakllantirdi. Fotografiyalar orqali Samarqand, Buxoro va Turkistonning me'moriy obidalar, mahalliy aholi, hunarmandchilik va shahar muhiti Yevropa jamoatchiligiga bevosita namoyish etildi. Natijada vizual reprezentatsiya yozma tavsiflarni to'ldirib, Markaziy Osiyo haqidagi tasavvurlarni aniqroq shakllantirdi.

Yug Kraft (Hugues Krafft, 1853–1935) vizual kolleksiyalari. Fransuz fotografi, sayyohi va kolleksioneri Yug Kraft XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoni vizual jihatdan hujjatlashtirgan eng muhim fransuz tadqiqotchilaridan biri hisoblanadi. U Turkistonga professional fotograf sifatida tashrif buyurib, bu hududning shahar muhiti, me'moriy yodgorliklari, etnografik tiplari va kundalik turmushini tizimli ravishda tasvirlagan. Uning ushbu safari natijalari keyinchalik “À travers le Turkestan russe” (“Rus Turkistoni bo'ylab”) nomli monumental nashrda jamlangan. Ushbu asar 1902-yilda Hachette nashriyotida chop etilgan bo'lib, unda “265 gravures d'après les clichés de l'auteur”, ya'ni muallifning o'z fotografik negativlari asosida tayyorlangan 265 ta tasvir mavjud. Yug Kraftning Turkistonga oid vizual merosining eng muhim saqlanish markazlaridan biri Fransiyaning milliy meros institutsional tizimi emas, balki uning shaxsiy merosi asosida shakllangan Musée-Hôtel Le Vergeur (Reims) fondidir. AGORHA rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, Kraftning kolleksion faoliyatida Markaziy Osiyo uning Yaponiyadan keyingi ikkinchi asosiy qiziqish markazi bo'lgan va uning sayohatlaridan shakllangan sharq san'ati kolleksiyalari keyinchalik muzey fondlariga vasiyat qilingan [14].

Jan Shaffanjon (Jean Chaffanjon, 1854–1913) kolleksiyalari. XIX asr oxirida Markaziy Osiyoda faoliyat yuritgan fransuz sayyohi va tadqiqotchisi Jan Shaffanjon nomi Markaziy Osiyo moddiy merosining Yevropaga olib chiqilishi bilan bog'liq eng bahsli tarixiy figuralardan biri sifatida tilga olinadi. Turkiston matbuoti va rus ma'muriy muhitida uning nomi arxeologik kolleksiyalarni Fransiya olib ketish bilan bog'liq jiddiy noroziliklar fonida eslatiladi. Bu holat XIX-asr oxirida Markaziy Osiyo qadimiy merosining tashqi kolleksion aylanishga kirganini ko'rsatadi. Jan Shaffanjon faoliyati Markaziy Osiyo moddiy merosining XIX asr oxiridagi xalqaro kolleksion migratsiyasi tarixida muhim o'rin tutadi. Samarqand ijtimoiy muhitida tarqalgan ma'lumotlarga ko'ra, mahalliy muzey uchun mo'ljallangan arxeologik kolleksiya uning tavsiyasi bilan 10 000 frank evaziga sotib olinib, Fransiya yuborilishi rejalashtirilgan. Ushbu voqea mahalliy ziyolilar va ma'muriy doiralarda tarixiy topilmalarning xorijga olib chiqib ketilishiga nisbatan salbiy munosabatning shakllanishiga sabab bo'lgan [8]. Mazkur holat Markaziy Osiyo moddiy merosining XIX-asr Yevropa ilmiy va kolleksion tizimiga kirish mexanizmlarini yaqqol namoyon etadi. Arxeologik topilmalar bu davrda nafaqat ilmiy qiziqish obyekti, balki kolleksion almashinuv va muzeylashtirish jarayonlarining tarkibiy qismiga aylangan. Shu sababli moddiy madaniyat

obyektlarining harakati ilmiy ekspeditsiyalar, kolleksion bozor va muzey fondlarini shakllantirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan. [9].

Jozef Kastanye (Joseph-Antoine Castagné, 1875–1958) kolleksiyalari. Fransuz tadqiqotchisi, etnograf va arxeolog Jozef Kastanye Markaziy Osiyoda fransuz ilmiy ishtirokining eng muhim vakillaridan biri sifatida nafaqat kuzatuvchi, balki bevosita moddiy meros kolleksioneri sifatida ham namoyon bo'ladi. Kastanyening Markaziy Osiyodagi faoliyati ayniqsa arxeologik kolleksiyalar shakllantirish nuqtai nazaridan katta ilmiy ahamiyatga ega. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 1912–1916 yillar oralig'ida u 500 dan ortiq arxeologik predmet yig'gan bo'lib, mazkur materiallar bugungi kunda 23 ta alohida kolleksiya inventari tarkibida saqlanmoqda [6]. Geografik jihatdan uning kolleksiyalari juda keng hududni qamrab olgan. Materiallar: Axsiket, Nog'ayqo'rg'on, Shohruxiya, Kanka, O'ratepa, Xo'jakent, Qal'ai Mug, Munchoqtepa, Panjikent va Termiz kabi yirik tarixiy markazlardan to'plangan. Bu esa Kastanyening Markaziy Osiyoni hududiy jihatdan kompleks tadqiq qilganini ko'rsatadi.

Tahlil va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, frankofon hududlarda Markaziy Osiyo kolleksiyalarining shakllanish jarayoni bir vaqtning o'zida bir necha ilmiy va madaniy omillar ta'sirida rivojlangan. XIX-asr ikkinchi yarmidan boshlab ushbu jarayon moddiy madaniyat obyektlarini yig'ish, tavsiflash va muzey fondlariga kiritish amaliyoti bilan boyidi. To'plangan arxeologik va tarixiy materiallar mintaqaning tarixini faqat yozma manbalar asosida emas, balki moddiy madaniyat yodgorliklari orqali ham tadqiq qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Xalqaro ko'rgazmalar esa Markaziy Osiyo merosining ilmiy doiradan ommaviy madaniy makonga o'tishini ta'minladi. 1867, 1889 va 1900-yillardagi Parij ko'rgazmalari, keyinchalik Lion, Belgiya va Shveysariyada tashkil etilgan namoyishlar natijasida Markaziy Osiyo madaniyati jahon tomoshabinlariga tanishtirildi. Shu tariqa kolleksiyalar ilmiy manba sifatidagi vazifasidan tashqari, madaniy diplomatiya va sivilizatsiyalararo muloqot vositasiga ham aylandi. Natijada Ch.-E. Ujfalvi misolida - antropologik, etnografik va madaniy materiallar, Gabriel Bonvalot va Guillaume Capus tadqiqotlarida - geografik makon, tabiiy tarix, Anri Moser faoliyati - etnografik va amaliy san'at merosi, Paul Nadar to'plamlarida - fotografik materiallar mintaq ilmiy-madaniy salohiyatini Yevropaga reprezentatsiya qilish bosqichini boshlab berdi. Bunda institutsional ilmiy tan olinish maqomini - Bibliothèque nationale de France, Musée Guimet, Trokadero, Luvr va boshqa ilmiy-madaniy muassasalar fondlaridagi xazinalarni tasodifiy yig'ilmadan ilmiy kolleksiyaga aylanishiga olib keldi. Shu sababli kolleksiyalarni shakllantirish jarayoni bir vaqtning o'zida ilmiy tadqiqot, madaniy transfer va reprezentatsiya mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Muzey manbashunosligi nuqtai nazaridan qaralganda, Markaziy Osiyo kolleksiyalarining shakllanishi qo'lyozma, artefakt yoki fotografiyaning yangi madaniy va ilmiy makonda qayta talqin qilinish jarayonidir. Bunda kolleksiyalar faqat muzey fondlarini to'ldiruvchi obyektlar emas, balki Markaziy Osiyo madaniy merosini Yevropa ilmiy va madaniy makoniga integratsiya qilgan muhim reprezentatsiya vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu jihat frankofon hududlarda Markaziy Osiyo merosining dastlabki reprezentatsiya modelini vujudga keltirgan. Shakllangan kolleksiyalar keyingi davr muzey ekspozitsiyalari, xalqaro ko'rgazmalar, ilmiy kataloglar va madaniy diplomatiya loyihalari uchun asosiy manba bazasiga aylangan. Frankofon hududlarda Markaziy Osiyo kolleksiyalarining shakllanishi Yevropa ilm-faniga Markaziy Osiyo tarixini yozma manbalardan tashqari moddiy madaniyat, etnografiya,

fotografiya va arxeologiya asosida o'rganish imkoniyatini yaratdi. Natijada Samarqand, Buxoro, Xiva va Turkiston haqidagi tasavvurlar sayohatnoma va sharqshunoslik

doirasidan chiqib, muzey kolleksiyalari va ko'rgazmalar orqali ilmiy hamda ommaviy muomalaga kirgan.

ADABIYOTLAR

1. [Recueil. Voyage de Paul Nadar au Turkestan russe]. Bibliothèque nationale de France, Département des Estampes et de la photographie. Inventory No. EO-112 (27)-BOITE FOL B.
2. Bibliothèque nationale de France. Henri Moser, un Suisse en Asie centrale. BnF Essentiels.
3. Bibliothèque nationale de France. Société de Géographie photographie archive: SG WD-82 (31) Armes du Caucase; SG WD-82 (21) Groupe de Khivains; SG WD-82 (26) Cavalier turcoman; SG WD-82 (17) Forteresse de Tchardjouï.
4. Bonvalot G., Capus G. A travers le royaume de Tamerlan. – Paris: Hachette, 1892; AGORHA, dossier biographique «Gabriel Bonvalot».
5. Gorshenina S. Un précurseur de l'archéologie et de l'ethnologie françaises en Asie centrale: Joseph-Antoine Castagné (1875–1958). Comptes rendus des séances de l'Académie des Inscriptions et Belles-Lettres. 1997.
6. Isotype of *Carum capusii* Franch. [Apiaceae]. Muséum national d'Histoire naturelle (P Herbarium), Paris. Inventory No. P00834738. Collector: G. Capus, №506. Locality: “Turkestan, Djizak”. JSTOR Global Plants.
7. Musée Guimet. Institutional collections overview; Muséum national d'Histoire naturelle. Historical collections records.
8. Richard F. Catalogue des manuscrits persans. Bibliothèque nationale de France. – Paris: BnF, différentes éditions; Richard F. Manuscrits persans de la Bibliothèque nationale de France se rapportant à l'Asie centrale musulmane // Cahiers d'Asie centrale. – 1999. – No. 7.
9. Type of *Ranunculus turkestanicus* Franch. Muséum national d'Histoire naturelle (P Herbarium), Paris. Collector: G. Capus. Locality: “Dashti-Goumbaz, sources du Jagnaou, à l'est de Samarcande”.
10. Ujfalvy Ch.-E. Expédition scientifique française en Russie, en Sibérie et dans le Turkestan. – Paris, 1879–1880.